


NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2025-yil 1- dekabr holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2025- yil 1- dekabr holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 20 891 tani tashkil etadi, shundan 18 318 tasi yoki 87,6 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2024- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,8 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 97,5 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2025	20 891	18 415	18 318
2024	21 154	18 874	18 780
2023	22 301	20 065	19 966
2022	25 007	22 786	22 681
2021	22 722	20 512	20 427

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Navoiy shahrida– 25,1 foiz, Karmana – 16,3 foiz, Qiziltepa – 13,1 foiz, Xatirchi – 10,1 foiz va Navbahor 9,4 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi G'ozg'on shahrida – 92,3 foiz va 92,0 foiz, Zarafshon shahrida – 89,7 foiz va 89,3 foiz, Karmana – 91,5 va 91,2 foiz, Qiziltepa – 90,1 foiz va 90,0 foiz hamda Navbahor – 89,6 va 89,3 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Navoiy shahar	5 236	4 602	4 563
Zarafshon shahar	1 394	1 251	1 245
G'ozg'on shahar	452	417	416
Konimex tumani	978	832	822
Qiziltepa tumani	2 739	2 468	2 464
Navbahor tumani	1 962	1 758	1 753
Karmana tumani	3 396	3 109	3 096
Nurota tumani	1 411	1 201	1 196
Tomdi tumani	476	383	378
Uchquduq tumani	728	599	594
Xatirchi tumani	2 119	1 795	1 791

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2025- yil 1- dekabr holatiga 36,6 foizni (41,5 foiz va 41,6 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 12,8% (14,5% va 14,4%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 10,6% (11,9% va 11,9%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 208	2 183	2 175
Sanoat	2 679	2 669	2 638
Qurilish	1 233	1 220	1 216
Savdo	7 637	7 637	7 628
Tashish va saqlash	743	740	735
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 401	1 397	1 394
Axborot va aloqa	297	286	285
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	520	311	309
Boshqa turlar	4 173	1 972	1 938

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2025-yil 1-dekabr holatiga ko'ra, 18 415 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 12 179 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	12 179	66,1
Xususiy korxonalar	3 340	18,1
Oilaviy korxonalar	2 807	15,2
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	74	0,5

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 307 ta korxonalardan 115 tasi qo'shma korxonalar va 192 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2025- yilning 1-dekabr holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2024-yilning mos davriga nisbatan 53 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 137 tadan 175 taga, (o'sish 38 taga), qurilish sohasida 14 tadan 24 taga (o'sish 10 taga), savdo sohasida 35 tadan 42 taga (o'sish 7 taga) hamda axborot va aloqa sohasida 11 tadan 16 taga (o'sish 5 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	307	115	192
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	16	7	9
Sanoat	175	81	94
Qurilish	24	3	21
Savdo	42	10	32
Tashish va saqlash	8	4	4
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	4	1	3
Axborot va aloqa	16	3	13
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	4	1	3
Boshqa turlar	18	5	13

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 118 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 38,4 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (13,4%), Turkiya (9,8%), Qozog'iston (5,2%), Eron (4,2%) va Janubiy Koreya (3,3%) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	307	115	192
Xitoy	118	34	84
Rossiya	41	14	27
Turkiya	30	9	21
Qozog'iston	16	5	11
Eron	13	8	5
Janubiy Koreya	10	6	4
Tojikiston	9	3	6
Hindiston	8	6	2
AQSH	6	5	1
BAA	5	2	3
Turkmaniston	5	1	4
Belorusiya	3	2	1
Germaniya	2	-	2

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2025- yil 1- dekabr holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Xatamova
79 223-62-47

Maznil:
210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
